

---

## XAYRULLO BOZOROV: SO'X TADBIRKORLAR YURTIGA AYLANISHI KERAK! BOSHQA YO'LIMIZ YO'Q!



### **XAYRULLO BOZOROV: SO'X TADBIRKORLAR YURTIGA AYLANISHI KERAK! BOSHQA YO'LIMIZ YO'Q!**

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov, So'x tumanidagi o'rganishlar jarayonida tumandagi Hazrati Ali MFY hududida tashkil etilayotgan yoshlar kichik sanoat zonasini borib ko'rdi hamda mahalliy tadbirkorlar bilan muloqot qildi.

3 gektar maydonda tashkil etilayotgan yoshlar kichik sanoat zonasida 40 dan ortiq loyiha amalga oshirilishga boshlandi. Umumiy qiymati 11 milliard 250 million so'mdan oshiq bo'lgan bu loyihalarning hayotga tadbiiq etilishi natijasida 250 dan ziyod ish o'rni paydo bo'ladi. Loyihalar orasidan qurilish, oziq-ovqat, tekstil mahsulotlari ishlab chiqarish kabi korxonalar o'rin olgan.

Loyihalar tashabbuskorlari bilan muloqot qilgan viloyat hokimi, sanoat zonasining infratuzilmasini yaratish bilan bog'liq masalalar to'raligicha hal etib berilishini bildirib, bu yerda o'z ishlab chiqarish biznesini yo'lga qo'yimoqchi bo'lgan yoshlarga, loyiha hajmidan qat'iy nazar har tomonlama yordam berilishini, kredit mablag'lari ajratilishini ma'lum qildi.

3 ta mahalla o'rtasida joylashgan ushbu yoshlar kichik sanoat zonasi yaqinida ko'p qavatli turar-joylar, sport maydonchalari qurilishi, buning natijasida hududda yangi sanoat shaharchasi paydo bo'lishi qayd etildi.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

2021-02-12 17:03:19